INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION
ISSN 2181-371X
https://sr-journals.org/index.php/ITSE

# Atrof-muhit, tabiatni asrashda pedogogik ta’limning ahamiyati va o’rni

***F.R.Raxmankulov***
*Gul DU mustaqil tatqiqotchi.*
*farxodraxmonkulov020184s@gmail.com*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda atrof-muhitning sanoat va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi global ekologik muammoga aylanmoqda. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish hamda yosh avlodga ekologik bilim berishda pedagogik ta’limning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ekologik tarbiya, tabiatni asrash masalalari va pedagogik ta’lim orqali atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarb jihatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ekologiya, atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya, ifloslanish, pedagogik ta’lim, sanoat chiqindilari, ekologik madaniyat, tarixiy yodgorliklar.

**Аннотация:** в настоящее время загрязнение окружающей среды промышленными и бытовыми отходами становится глобальной экологической проблемой. Важное значение приобретают охрана природы, формирование экологической культуры и экологическое образование молодого поколения посредством педагогического обучения. В данной статье рассматриваются вопросы экологического воспитания, охраны природы, а также актуальные аспекты защиты окружающей среды через педагогическое образование.

**Ключевые слова:** экология, окружающая среда, охрана природы, экологическое воспитание, загрязнение, педагогическое образование, промышленные отходы, экологическая культура, исторические памятники.

**Abstract:** Today, environmental pollution caused by industrial and household waste is becoming a global ecological problem. The protection of nature, the development of ecological culture, and providing environmental education to the younger generation through pedagogical education are of great importance. This article discusses environmental education, nature conservation, and current issues of environmental protection through pedagogical education.

**Keywords:** ecology, environment, nature protection, environmental education, pollution, pedagogical education, industrial waste, ecological culture, historical monuments.

Inson va atrof-muhitning umumiy belgilari bilan bir qatorda o'ziga xos tomonlari ham bor. Inson yashashai uchunzarur bo'lgan barcha narsalar – ozuqa, kiyim, qurilish materiallari va boshqalar tabiatdan olinadi. Bunga erishish uchun tabiiy boyliklardan foydalaniladi, albatta bu xomashyolarni qayta ishlash lozim. Buning uchun ulkan sanoat infratuzilmasi yaratilgan. Yuqorida fikr yurtganimizdek sanoat karxonalari nafaqat mahsulotlar ishlab chiqaradi balki atrof-muhitga chiqindilar ham tashlaydi, bu esa tabiatga o'zini salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisi soni 7 mlrdga etib bormoqda, albatta bu tabiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelmoqda. Natijada atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar yildan yilga oshib ketmoqda. Shuning uchun Ona tabiatimizga o'z ta'sirini ko'rsatadigan sanoat chiqindilaridan himoyalash davr talabi bo'lib qolmoqda. Chunki ifloslangan tabiiy muhit nafaqat insonlarga balki tabiatimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada nafaqat davlatimiz balki dunyo davlatlari tamonidan birqancha chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Bunda eng asosiy maqsad bu tabiiy resurslarga tejamkorona munosabat va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, qolaversa inson salomatligini tiklash. Repulikamizda hozirgi kunda barpo etiladigan barcha sanoat korxonalari zamon talablariga mos keladigan texnologiyalari bilan jihozlanib o'rnatilmoqda. Buning natijasida respublikamiz ekologik holati yaxshilanishiga olib kelmoqda. Ekologik ta'lim-tarbiyani bog'chalar va maktablarda olib borish yo'llari. Tabiat, uning go'zalligi va tabiiy boyliklarni saqlash borasidagi ishlarni oila, bog'cha bolalari va maktab o'quvchilari orasida olib borishdan boshlab, yosh va o'sib kelay

otgan avlodni atrof muhit, undagi o'simlik, hayvon, suv va tuproqqa mehr-shafqatli, ularni asraydigan, boyitadigan jonkuyar qilib tarbiyalash kerak. Shu maqsadlarga erishish uchun:

1. Bog'cha bolalarini maxsus «Ekologik ta'lim-tarbiya metodikasi», «Tabiat bilan tanishish» kabi dasturlar asosida tarbiyalash hamda turli o'yinlar vositasi bilan tabiatga oid ekologik ta'lim elementlarini bolalar ongiga singdirish kerak;
2. Bolalarda tabiatga nisbatan mehr-muxabbat uyg'otish borasida olib boriladigan ishlar maxsus metodik qo'llanmalar, tavsiyalar, «Atrofimizdagi olam», «Atrofimizdagi tabiat», «Tabiatshunoslik» kabi o'quv-o'yin materiallari asosida oddiy, sodda va tushunarli formalarda olib borilishi kerak;
3. Bolalarga atrof muhit borasida ekologik ta'lim-tarbiya beradigan tarbiyachi va metodistlarning o'zlari maxsus kurslarni tamomlagan, tajribali mutaxasislar bo'lishlari shart;
4. «Ekologik ta'lim va tabiya uslubi» dasturi asosida tarbiyachilarni qayta tayyorlash kurslari, leksiyalar, tajriba almashish seminarlari tashkil qilib, xizmatchilarning bilim va saviyalari, ishlash qobiliyatlarini oshirish kerak;
5. Maktablarda «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik» o'quv kitoblari asosida «atrof muhit», «tabiat», «atrof muhit muhofazasi», «ekologiya», «ekologiya ziddiyatlari» kabi tushunchalar botanika, zoologiya, adabiyot, kimyo, fizika va ayniqsa, «Umumiy biologiya» fanlarini o'tishda alohida o'rin olishi kerak;
6. Maktab o'quvchilarini tabiat, agrotsenozlarga, ekskurssiyalarga olib chiqishda atrof muhit holati, uning muxofazasi alohida o'rin olishi, o'quvchilar shu ekskursiya davomida o'zlari yashayotgan joyning tabiati, uning ekologik holati, unga ta'sir qilayotgan salbiy va ijobiy omillar, tabiat boyliklarini saqlash va boyitish borasida chora-tadbirlar ko'ra bilish bo'yicha bilim, ko'nikmalar va fikrlash qobiliyatiga ega bo'lib, ekskursiyadan qaytishlari kerak;
7. Maktab va litsey o'quvchilari «yosh tabiatshunoslar», «Yashil patrullar» «Jonivorlarni asrovchi jonkuyarlar», «Ona-er patrullari», «Toza havo», «Moviy suv» patrullari, sog'lomlashtirish lagerida tuzilgan «Tabiat va fantaziya», «Yosh fenologlar», «Tabiatni muhofaza qilish» kabi to'garaklarda maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar», «Tabiatni muxofaza qilish» kabi to'garaklarni maxsus tayyorlagan «Yosh ekologlar» o'quv dasturi asosida atrof muhit muammolarini har tomonlama o'rganib borishlari kerak. Chet ellarda tabiatni muhofaza qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ko'pchilik mamlakatlarda 4 xil qo'riqxonalar mavjud, tabiiy rezervatlar-kat'iy rejim bilan ishlaydigan xatto kishilarning kirishi ham man etilgan katta maydonlar. Bunday qo'riqxonalarda noyob o'simliklar va hayvonlar qo'riqlanadi. Ularda ilmiy ishlar olib boriladi; Milliy (xalq) parklar-yirik qo'riqxonalarda butun tabiiy kompleks muhofaza qilinadi. Badiiy qo'riqxonalar G'arbiy YEvropa, Afrika, Shimoliy Amerika, millatlar hamkorligidagi mamlakatlar juda keng tarqalgan bo'lib, bu qo'riqxonalarga kishilar pul to'lab kiradilar. Eng katta va mashhur milliy parklarga yiliga bir necha 10 mln. kishi kiradi. Masalan: mashhur “Yellouston” milliy parkiga tashkil etilganidan beri (1872 yildan) hozirgacha 100 mlndan ortiq kishi kelib ketgan.Tabiat yodgorliklari-g'or, er osti tog' jinslari ochilib qolgan joylar, katta yoki bahaybat daraxtlar, ajoyib shakldagi qoyalar, sharsharalar kabi ayrim ob'ektlar qo'riqlanadigan kichik qo'riqxonalardir. Tabiiy yodgorliklar, tarixiy ob'ektlar bo'lib saqlanadi, chala balki qisman mavjud qo'riqxonalarda ayrim ob'ektlar muhofaza qilinadi. Badiiy qo'riqxonalar zakazniklar deb atalishi mumkin. Ov qilish yoki baliq tutish man etilgan maydonlar zakazniklar deb yuritiladi.Chet mamlakatlarda qo'riqxonalarning umumiy soni va maydoni shuni ko'rsatadiki, aholi zich yashaydigan va tabiiy sharoiti xilma-xil bo'lgan mamlakatlarda qo'riqxonalar nisbatan katta maydonni egallagan.umuman olganda, dunyoda qo'riqlanadigan maydonlar juda notekis joylashgan. Chunonchi, Chexoslavakiyada qo'riqxonalarning nisbiy maydoni Fransiyadagiga nisbatan 60 marta, Keniyada Jazoirdagiga nisbatan 1,5 ming marta kattadir. Osiyo mamlakatlariga qolganda, Shri-Lankada qo'riqlanadigan maydonlar Xindistondagiga nisbatan 45 marta ko'p.Germaniya Yevropa mamlakatlar orasida tabiatni muhofaza qilishiga birinchi bo'lib kirishgan, chunki tabiatning nest-nobud qilishi natijasida tabiiy boyliklarning kamayib ketganligining bu mamlakat boshqa davlatlardan oldinroq sezadi. 1954 yilda tabiatni muhofaza qilish to'g'risida qonun qabul qilinadi. Bu qonunga ko'ra tabiatni muhofaza qilish Davlat boshqarmasi Germaniyada tabiatni muhofaza qilish barcha tadbirlar

kompleksini nazorat qilish va tashkil etish bosh organi tuzildi. Germaniyada 70-yillarda umumiy maydoni 44100 ga bo'lgan 200 ta qo'riqxona va umumiy maydoni 21726 ga bo'lgan 270 ta qo'riqxona kerak. O'rmon uchastkalari, shuningdek, maydoni 199100 ga bo'lgan 334 ta qo'riqlanadigan landshaft uchastkalari bo'lgan. Bundan tashqari, ob'ekt maydoni kichikroq bo'lgan 10000 ta tabiat yodgorliklari ishlab turibdi. Germaniyada tabiatni muhofaza qilish tabiiy boyliklarni, birinchi galda kamayib ketayotgan fauna va florani saqlab qolish va imkoni boricha sonini ko'payishiga qaratilgan ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Qo'riqxonalarda va tabiat landshaftlarini o'rganish hamda muhofaza qilish ilmiy tadqiqot institutida qo'riqxona ishiga nazariy va amaliy tavsiyalar beradigan maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.AQSh da ham yer-suv, o'rmon va hayvonlarni yirtqichlarga nest-nobud qilishga qarshi kurashga doir misollar ko'p. Asr boshlarida AQShda hayvonot dunyosini muhofaza qilish sohasida 300 ga yaqin qonun qabul qilingan. Ana shu davrdan boshlab katta foyda keltiradigan qo'riqxonalar milliy parklar barpo etila boshlandi. Yuqorida tilga olingan Yellouston milliy parkidan tashqari (9 mln. km2) boshqa yirik qo'riqxonalar (Texasda) Biya-Bld (300 mingga), Gavayi, Olimpiya qo'riqxonalari ham turistlardan katta daromad olmoqda.

Xulosa: XXI - asr ekologiya asri bo'lishi shubhasizdir. Har bir inson ona sayyoramiz tabiatiga ziyon etkazmasdan o'zgartirish, tabiiy boyliklaridan okilona foydalanish va yashash muhitini saqlashdek muqaddas ishga o'zining munosib hissasini qo'shishi lozimdir. Halqaro miqyosda juda ko'p konvensiyalar BMT tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda amal qilmoqda. Sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalam bor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqitsiz jarayonlardan foydalanishimiz lozim

**Adabiyotlar**

1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. -T.: “O‘zbekiston”, 2017-y.
2.Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. -T.: “O‘zbekiston” 2016-yil.
3.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4.Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nuqti (https://www.gazeta.uz).
6. Axunboboyev M. M., Zikirov I. Y., Kenjayev A. A. SIRDARYO VILOYATI TUPROQLARIDA SHO ‘RLANISH JARAYONLARINING SENTINEL-2 MULTISPEKTRAL TASVIRLARI ASOSIDA NDSI KO ‘RSATKICHI ORQALI FAZOVIY BAHOLANISHI //Экономика и социум. – 2026. – №. 1-1 (140). – С. 85-92.
7.Zikirov I. Y., Kenjayev A. A., Aripov I. K. SIRDARYO VILOYATI SUG ‘ORILADIGAN HUDUDLARIDA TABIIY MELIORATIV SHAROIT VA TUPROQ SHO ‘RLANISHINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI //Экономика и социум. – 2026. – №. 1-2 (140). – С. 340-344.
8. Axunboboyev M., Zikirov I., Kenjayev A. Sug'oriladigan agroekotizimlarda tuproq sho'rlanishi va yer osti suvlari sathining o'simlik qoplamiga ta'siri: GIS va o'simlik indekslariga asoslangan tahlil //J Open. – 2026. – Т. 2. – №. 01. – S. 17-22.
9.Djurayev M., Husenov J., Qurbonova C. GEOGRAFIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY O'YIN TEXNOLOGIYALAR //Jurnal akademicheskix issledovaniy novogo Uzbekistana. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – S. 67-70.
10.Djurayev M., Qurbonova C., Husenov J. Geografiya fanining maktablarda o'tilish sifati //Журнал академических исследований нового Узбекистана. – 2024. – Т. 1. – №. 5. – С. 71-73.

.